



HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH DAVR TALABI

Usarqulova Shaxrizoda Xusan qizi

O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Tel: +998990686673

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Aprel 2023 yil
Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil
Nashr qilindi: 06-May 2023 yil

KEY WORDS

huquqiy ong, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, qonun, ijtimoiy davlat, farmon, buyruq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat va hamda ularning jamiyat hayotida qanchalik darajada ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek Aholining huquqiy bilimini oshirish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar va huquqiy madaniyatni yaxshilash borasida masalalar yoritib berilgan.

Mamlakatimiz istiqbolga erishgan davrdan boshlab toki hozirgi kungacha yuksak taraqqiy etgan adolatli fuqarolik jamiyati va kuchli ijtimoiy davlat qurish yo'lidan jadal odimlab bormoqda .O'tgan davr mobaynida yuksak fuqarolik jamiyatini qaror toptirish yo'lida xalqimizning huquqiy bilimini yuksaltirish va huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash, qabul qilingan qonunlarning mazmun mohiyatini aholiga anglatishga chuqur e'tibor qaratildi. Biroq bugungi kunda kuchli ijtimoiy davlat qurish jarayonida mamlakatimiz oldidagi to'siqlardan biri sifatida aholining huquqiy ongi va madaniyatini nihoyatda sayozligini e'tirof e'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki faqatgina aholisining huquqiy ongi yuksak bo'lgan jamiyatlardagina qonunlar qog'ozlarda qolib ketmasdan butun hayotni qamrab oladi.

Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti qonunlarga so'zsiz rioya qilish ekanligi hech kimga sir emas . Qonunlarga so'zsiz rioya qilish uchun har bir shaxs jamiyatdagi o'z vazifasini va zimmasidagi ma'suliyatni his qilishi lozim. Buning uchun esa shaxsda huquqiy ong va huquqiy madaniyat qaror topgan bo'lishi lozim.

Avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyat nimaligi haqida tasavvur hosil qilib olish uchun bu borada olimlar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalib o'tamiz, Jumladan, Professor Islomov o'zining Davlat va huquq nazariyasi kitobida huquqiy ongga quyidagicha ta'rif bergan : "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa , yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar, tizimi sifatida ta'riflash mumkin".[1] Shuningdek Islomovning boshqa bir asarida huquqiy madaniyatga shunday ta'rif berilgan: "Huquqiy madaniyat deganda , huquqiy bilim andozalari va uning tabiatini, huquqiy tizim bahosini, shuningdek, huquqiy xatti-harakatlar soxasini tartibga soluvchi ijtimoiy qadriyatlar, normalar, an'ana va andazalar mazmun mohiyatini tushunish kerak " [2] . professor Dmitrievning fikricha " Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va

huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari tasavvurlari yig'indisidir". [3] Tajixonov va Saidov esa huquqiy madaniyatga quyidagidek ta'rif beradilar: Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasini, huquqqa rioya qilmaganlarning murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz.

Yuqoridagilarni inobatga olib, hamda umumlashtirgan holatda shuni aytishimiz mumkinki, Huquqiy ong bu shaxslarning jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalar, normativ huquqiy hujjatlar va huquqiy munosabatlardan habardor bo'lishi, bu xususida o'z tasavvuriga ega bo'lishi bo'lsa, huquqiy madaniyat esa shaxsning o'zi anglab yetgan mana shu huquq normalariga amal qilishidir.

Fuqarolarda yuksak huquqiy ong va savodxonlikni shakllantirish mamlakatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga xizmat qiladi hamda huquq ustuvorligini ta'minlash va huquqiy davlat qurishning poydevori hisoblanadi. Rostan ham shunday, huquqiy imunitet shakllangan shaxslarda yot g'oyalar, qarashlar, amaldagi qonunlarga xilof xatti-harakatlar ta'sir etolmaydi. "Oq va qora" ni farqiga borish, "yaxshi nimayu yomon nima" ligini idrok qilish uchun esa aynan huquqiy savodxonlik yordam beradi. Lekin bir masalani ham alohida ta'kidlab o'tish juda ham ahamiyatli bo'lib, bu har bir huquqiy ongga ega bo'lgan shaxslarda, huquqiy savodxonlik bilan bir qatorda huquqiy madaniyat ham shakllangan bo'lavermasligidir. Bu masalani shunday tavsiflash mumkin, ya'ni shaxs huquq normalaridan yetarli darajada boxabar hamda ularni buzganlik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan javobgarlikdan ham habardor bo'ladi, lekin shunga qaramasdan ularga rioya etmaydi, bilib turib qonunlarda belgilangan normalarga xilof harakatlarni amalga oshiradi. Mana shunday shaxslarning huquqiy ongi bor lekin, lekin huquqiy madaniyati shakllanmagan hisoblanadi.

Yurtimizda so'nggi yillarda aynan fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va huquqiy madaniyatini shakllantirish borasida amalga oshirilgan ishlar tahsinga sazovordir. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4947-sonli farmoni bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Haraklar strategiyasining Qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari deb nomlangan qismida "aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish" [4] ga alohida e'tibor qaratilgan. Bu boradagi islohotlar birgina farmon bilan cheklanib qolgani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvar kuni qabul qilingan 5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risi"dagi, Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 25-maydagi 106-umum-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda Huquqiy siyosat tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilgan "Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasidagi dolzarb vazifalar" mavzusidagi tadqiqot ham bu sohada amalga oshirilgan muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Bu sohada amalga oshirilgan islohotlar haqida yozar ekanmiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-sonli 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risi"dagi farmoni haqida yozmaslik ilojsizdir. Aynan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan

islohotlar ro'yhatida "Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish , bu boradagi davlar organlarining fuqarolik jamiyati institutlari , ommaviy axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish"[5] kabi islohotlarning belgilanganligining o'zi ham bu boradagi muammolarga davlat rahbari tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilayotganligining isbotidir.

Aholining huquqiy madaniyatini yaxshilash borasidagi masalalarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bir masalani tan olish lozimki, faqatgina hokimyat organlari tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlarining o'zigina aholining huquqiy bilimni oshirib qo'yaolmaydi. Ularni real hayotga ko'chirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi islohotlarni ta'lim muassasalaridan boshlash maqsadga muvofiq bo'lib, mazkur yo'nalishda davra suhbatlari, o'quv seminar mashg'ulotlari va ilmiy-amaliy konferensiyalar muntazam ravishda o'tkazib borilishini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, va oliy ta'limda huquq sohasida ko'plab ko'rik tanlovlari o'tkazish. Bunday ko'rik tanlovlarni mahallalar, shuningdek, viloyatlar miqyosida ham o'tkazib respublika miqyosidagi tanlovlarni ham tashkil qilish ,umum ta'lim maktablarning boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda Konstitutsiya va boshqa inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi darsliklarni tashkil qilish hamda qonunchilikdagi o'zgarishlardan aholini muttasil ravishga ogoh qilib boruvchi samarali tizimni ishlab chiqish zarur deb hisoblayman . Xulosa qilib aytganda, Huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma-bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan davlat aholisi o'z huquq va erkinliklaridan boxabar bo'ladi va ulardan maksimal darajada foydalanadi , aholining huquqiy madaniyatga ega bo'lishi faqatgina huquq va erkinliklarini amalga oshirishga emas, balki majburiyatlarini bajarishda ham muhim o'rin tutadi, zero o'z haq-huquqlarini biladigan va qonunlarga og'ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi,-T.:Adolat, 2007.-537-bet
2. Islomov.Z.M.Davlat va huquqning umumnazariy muammolari,-T.:Adolat,2005.-150-bet
3. U.Tajixanov, A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom.-Toshkent.1998,11-bet
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4947-sonli farmoni asosida 7.02.2017-yil qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 60-sonli farmoni asosida 28.01.2022-yil qabul qilingan 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.